

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИСИНИНГ КАСБИЙ ТАЙЙОРГАРЛИГИНИНГ ЭТИКЕТ ҚОИДАЛАРИ

***Mansurova Maftuna Komiljon qizi***

*7011020-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)  
mutaxassisligi magistranti*

***Jontemirova Umida Xolmamatovna***

*Navoiy viloyati Uchquduq tuman 2-sonli DMTT Uslubchisi*

***Egamova Mohira Haydarovna***

*Navoiy viloyati Uchquduq tuman 15-sonli DMTT uslubchisi*

***Tosheva Zebo Xasanovna***

*Navoiy viloyati Uchquduq tuman 15-sonli DMTT logopedi*

**Аннотация:** Etikaning shakllanishida va rivojlanishida dinning ahamiyati juda ham katta. Masalan, Islom dinida va uning muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimda axloqiy qoidalarga alohida e'tibor berilgan va uning eng muhim tushunchalari ta'riflangan va insoniyatni ularga amal qilishga undalgan. Bu axloqiy qoidalar quyidagilardan iborat: yaxshilik qilish, kechirimli bo'lish, sabr-qanoatli bo'lish, aldamaslik, shirinsuxanlik, ota-onani, o'zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, ornomusli, sadoqatli bo'lish kabilardir.

**Калит со'злар:** Milliy, zamonaviy, tashkilotlarda, yordamchisi, xodimlar vazifalari, ijtimoiy v.h.

Etiketning oltin qoidasi

1. Har doim yaxshi narsalarga qarab intilish kerak, bu birinchi qoida. Yaxshilik deganda, yaxshi xizmat, jamoat va rahbar tasavvurida siz haqingizda yaxshi fikr qoldirish kerak.

2. Sadoqat bilan xizmat qilish. Har sohaning mas'uliyati bor, unga amal qilish zarur.

3. Kasbdoshlar orasida o'zaro hurmat va ishonch qozonish, bir-biriga do'stona va yaxshi muomalada bo'lish. Jamoani va o'z-o'zini hurmat qilish har birmutaxassis uchun kerak.

4. Haqqoniy, adolatli bo'lish – har bir insonning ma'naviy aspekti. Buxususiyatni ish jarayonida har bir insonda ijobiy jihatlarini namoyon bo'lishidakuzatish mumkin.

6. Bilimli, hissiyotli, xulq atvorli bo'lish va boshqalarga namuna bo'lish ishjarayonining eng yaxshi xislatlaridan biridir. 7. Har bir inson odob-axloqli va namunali xulqli bo'lishi, etiket qoidalariga doimo amal qilishi kerak. 8. Har doim har bir inson sahiy, ko'ngli toza, shaxsiy hayotda xushxulqli, bag'rikeng bo'lishi talab qilinadi. 9. Har qanday axborotni (sirni) har bir inson saqlay bilishi, shundagina

jamooldida hurmat qozonishi mumkin. 10. Barchaga siz yaxshi xulq-atvoringiz va kasbiy mahoratingiz bilan namuna bo`lishingiz zarur.

“Etiket” tushunchasi qachon paydo bo`lgan? “Etiket” tushunchasi miloddan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda qadimgi Misrda paydo bo`lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta`b, rasm -rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davridayoq qabilalarda mavjud bo`lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to`liq bajarmaslik o`zi yashayotgan jamoat yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo`lgan. Avvalida bunday qoidalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarini ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a`zosi unga so`zsiz bo`ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalariga ega bo`lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammolariga bog`liq holda tatbiq etilgan. Ya`ni, bu qoidalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinar edi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarda giltaxtalarda o`z aksini topgan.

Qadimgi Misrda esa bu tartib qoidalar qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo`lgan. Bunday qoidalar, ayniqsa, Somirda ilohiylik bilan yo`g`rilgan. Ularni bajarmaslik xudoning qahri bilan qaytarilishi ta`kidlangan.

Qadimgi Skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposi nafaqat dasturxon atrofida o`tirish qoidalari, balki mezbon sharafiga tilak aytish me`yorlarni ham o`zida mujassam etgan. Shu tarzda oqsuyaklarni oddiy fuqaro va ulardan pastroq darajada bo`lgan insonlardan farqlay bilish uchun alohida odamlarning o`zini a`lo jamoatda tutishning tartib-qoidalari paydo bo`ldi. 1207-yilda ispaniyalik Petrous Alfonsi muallifligida ilk bor “O`zini tutish qoidalari” deb nomlangan kitob paydo bo`ldi.

Bu izlanishlar qadimgi Turon hamda Eron zaminida bunday yodgorliklar bo`lmagan, degan fikrni bildirmaydi. Zotan, bunda pandnomalarning o`rni beqiyos. Ammo shuni aniqlash zarurki, milliy o`zligimizni anglash bilan bog`liq bunday ilmiy atamalar juda ko`p chalkash tushunilishi yoki targ`ib qilinishi natijasida ko`pgina noaniqliklar vujudga keladi. Aytaylik, axloq bilan xulq va odobni, odob bilan etiketni bir ma`noda tushunish hollari uchraydi. Aslida, ushbu tushunchalar bir-biridan ham nazariy, ham amaliy, ham qo`llanish jihatidan farqlanadi[6].

Axloq- jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun na`muna bo`la oladigan ijobiy hatti harakatlar yig`indisi. Insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma`naviy hodisa. Axloq ijtimoiy ongning muayyan shakli bo`lib, kishilarning ijtimoiy va shahsiy hayotida bir-birlariga bo`lgan munosabatlarning, hatti-harakat prinsiplari yig`indisi. Axloq so`zi, tushunchasi ham arabcha bo`lib, xulq so`zining ko`pligidir.

Xulq soʻzi esa –oila jamoa, mahalla koʻy miqiyosida ahamiyatli boʻlgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga taʼsir koʻrsatmaydigan, yoqimli insoniy hatti harakatlar majmui.

Odob-inson haqida yoqimli taassurot uygʻotadigan, lekin jamoa va jamiyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega boʻlmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni oʻz ichiga oladi. Zero odob rasm-rusmlari – asosan, tashqi taʼsirga emas, balki ichki jihatga qaratilgan.

“Etiket” atamasi, dastlab, Fransiyada Lyudovik XIV davrida paydo boʻlib, Oʻrta asrlarda Yevropada nafaqat madaniyat belgisi, balki kiborlar (aristokrat) va oqsuyaklarni oddiy xalqdan ajratib turuvchi odob qoidalari sifatida xizmat qilgan. Biroq, dastlab olmon mumtoz falsafasining namoyandalari, keyinroq esa ruhiy tahlil axloqshunoslari bu kabi “Odob qoidalari” inson erkinligi va ruhiy salomatligi uchun zararli ekanligini taʼkidlaydilar. Chunki oʻta sertakalluflik, faqatgina jamiyat oldidagi obroʻsi uchun qilinadigan yuzaki odoblar ikkiyuzlamachilik sifatida mulozamatni meʼyordan chiqargan va uni qabul qilgan insonga ham ruhiy jihatdan aks taʼsir koʻrsatadi, deydilar. Bunday fikrlar bugungi kunga kelib etiket yoki zamonaviy odob qoidalariga nisbatan bir tomonlama yondashuv ekanligi tushunib yetilmoqda. Ayrim manbalarda Etikaga quyidagicha taʼrif berilgan. “Etika” – yunoncha “Ethos” degan soʻzdan olingan boʻlib, buning maʼnosi xulq –odat demakdir. Etika yaʼni axloq haqidagi fan, yaʼni axloqshunoslik haqidagi fandır. Kishilik jamiyatining ilk davrlarida axloq normalari-yurish turish qoidalari va odob prinsiplari kishilarning mehnat qilish jarayonida vujudga kelib ular rioya qilish urd-odat anʼanaga aylanib boradi.

Davlatning eng muhim axloqiy vazifalaridan biri-tarbiya. Davlat tomonidan maktabgacha boʻlgan tashkilotlarda, maktablarda va oliy oʻquv yurtlarida taʼlim bilan qoʻshib olib boriladigan tarbiya alohida ahamiyatga ega. Agar mazkur tarbiyada ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u hol maqtarli emas, yoshlarning oʻzligini anglagan shaxs boʻlib yetishuvi mushkullashadi. Shu bois, imkon boricha tarbiyada individual yondoshuvga intilish maqsadga muvofiq.

Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, hamma fuqaro baravar teng, degan usulda ish koʻrmasligi lozim; hammaning huquqiy tengligini tan olgan holda, ijtimoiy tenglashtirish tamoyiliga yoʻl qoʻymaslik kerak. Davlatning mavjud boʻlish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalq tashqi olamga nisbatan mustaqil boʻladi va oʻz davlatini shu mustaqillik asosida tuzadi. Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin oʻz davlatimizni qadimiy davlatchiligimizning eng yaxshi anʼanalari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qurishga kirishdik. yosh avlod tarbiyasi bizda davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Biz tanlagan demokratik Davlatning asosida esa yuksak axloqiylik yotadi.

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini ular fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy

tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri-muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi[9]

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik kamsuqumlik, bosiqlik xushmuomalalik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana bir «kuzgusi» bu -insoniy qarash, nigoh. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik bir quruvchi usta o'z shogirdining hatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va hatti-harakati bilan; «Obbo shovvoz-ey, sal shoshilibsan-da, ha, mayli, zarari yo'q, shunaqasi ham bo'ladi», degan ma'noni anglatga, ikkinchi ustaning qarashidan; «Yana ishni rasvo qilibsanku, padarla'nat, qachon odam bo'lasan?!», degan so'zlarni o'qish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi - shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat va odob o'rgatishsiz bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla -kuyning ta'siri katta. Undan foydalana bilash kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2-martdagi nizomi.
4. "Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda qabul qilingan qarori.